

“TASDIQLAYMAN”

Termiz iqtisodiyot va servis

universiteti rektori

 **A.E. Absamatov**

“25” 04 2026 yil

“Intellectual Leaders Club” faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizom

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom “Intellectual Leaders Club” (keyingi o‘rinlarda – Klub) faoliyatini tartibga soladi.

1.2. Klub Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘limi qoshida tashkil etilgan ixtiyoriy asosda faoliyat yurituvchi talabalar birlashmasi hisoblanadi.

1.3. Klub o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi hamda Universitet Nizomi va ushbu Nizom asosida amalga oshiradi.

1.4. Klub faoliyati universitet hududida hamda belgilangan tartibda boshqa joylarda amalga oshirilishi mumkin.

1.5. Klub faoliyati quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- **ixtiyoriylik** — a‘zolik erkin tanlov asosida amalga oshiriladi;
- **tenglik** — barcha a‘zolar teng huquqlarga ega;
- **oshkoralik va shaffoflik** — faoliyat ochiq va adolatli olib boriladi;
- **faollik va mas‘uliyatlilik** — a‘zolar klub ishlarida faol ishtirok etadi;
- **ilmiylik va innovatsion yondashuv** — faoliyat zamonaviy bilim va g‘oyalarga asoslanadi;
- **liderlik va tashabbuskorlik** — a‘zolarning yetakchilik salohiyati qo‘llab-quvvatlanadi;
- **hamkorlik va jamoaviylik** — o‘zaro hamkorlik va jamoa ruhiga asoslanadi;
- **natijadorlik** — amalga oshirilayotgan faoliyat aniq natijalarga yo‘naltiriladi;
- **o‘zaro hurmat va etik me‘yorlarga rioya etish** — sog‘lom muhit ta‘minlanadi.

1.6. Klub o‘z ramzlari (logotip, emblema va boshqalar)ga ega bo‘lishi mumkin.

2. Klub faoliyatining asosiy maqsadi hamda vazifalar

2.1. **Klub faoliyatining asosiy maqsadi** — talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning ilmiy, innovatsion va liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish hamda tashabbuskor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash orqali zamonaviy fikrlaydigan yetakchi kadrlarni tayyorlashdan iborat.

2.2. Klub o‘z faoliyati davomida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- talabalar o‘rtasida ilmiy va intellektual muhitni shakllantirish;
- ilmiy seminarlar, treninglar, debatlar va uchrashuvlar tashkil etish;

- iqtidorli va tashabbuskor talabalarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash;
- innovatsion g'oyalar va startap loyihalarni rivojlantirishga ko'maklashish;
- talabalar o'rtasida liderlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish va ularni rag'batlantirish;
- respublika va xalqaro miqyosdagi tanlovlar, forumlar va loyihalarda ishtirok etishga ko'maklashish;
- boshqa tashkilotlar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- klub faoliyatini ommalashtirish va uning ijobiy imijini shakllantirish.

3. Klub faoliyatining asosiy yo'nalishlari

3.1. Klub o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar asosida amalga oshiradi:

3.1.1. **Ilmiy-tadqiqot yo'nalishi** - Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish, ilmiy maqolalar tayyorlash, konferensiya va seminarlar tashkil etish hamda ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash.

3.1.2. **Innovatsion va startap loyihalar yo'nalishi** - Talabalarning innovatsion g'oyalari va startap tashabbuslarini rivojlantirish, loyiha ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga ko'maklashish.

3.1.3. **Liderlik va shaxsiy rivojlanish yo'nalishi** - Talabalarda liderlik, tanqidiy fikrlash, muloqot va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar va dasturlarni tashkil etish.

3.1.4. **Intellectual va madaniy-ma'rifiy yo'nalish** - Debatlar, intellektual o'yinlar, davra suhbatlari hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish orqali talabalar bilim va dunyoqarashini kengaytirish.

3.1.5. **Hamkorlik va tashqi aloqalar yo'nalishi** - Boshqa ta'lim muassasalari, tashkilotlar va mutaxassislar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va rivojlantirish.

3.1.6. **Axborot va targ'ibot yo'nalishi** - Klub faoliyatini ommalashtirish, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot vositalari orqali targ'ib qilish hamda ijobiy imijni shakllantirish.

4. Klub a'zoligi

4.1. Klub a'zoligi ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. Klub a'zolari Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabalari orasidan shakllantiriladi.

4.2. Klub a'zoriga nomzodlar belgilangan tartibda ariza topshirish orqali ro'yxatdan o'tkaziladi hamda saralash (tanlov/suhbat) bosqichida ishtirok etadi.

4.3. Klub a'zoriga qabul qilish tanlov natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

4.4. Zarur hollarda nomzodlar uchun sinov muddati (1 oygacha) belgilanishi mumkin.

4.5. Klub a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- Klub tadbirlari va loyihalarida ishtirok etish;

- Klub faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritish;
- Klub boshqaruv organlariga saylash va saylanish;
- O'z tashabbuslarini ilgari surish va amalga oshirishda ko'mak olish;
- Klub tomonidan tashkil etiladigan dastur va treninglarda ishtirok etish.
- Klub resurslari (axborot, metodik materiallar, platformalar)dan belgilangan tartibda foydalanish;
 - Klub faoliyatiga oid qarorlar muhokamasida ishtirok etish;
 - Klub faoliyati yuzasidan axborot olish;
- 4.6. Klub a'zolari quyidagi majburiyatlarga ega:
 - Klub tadbirlari va yig'ilishlarida muntazam ishtirok etishi;
 - Klub faoliyati doirasida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishi;
 - Klub ichki tartib-qoidalariga va belgilangan etik me'yorlarga rioya qilishi;
 - Klub tomonidan tashkil etilayotgan loyihalar va tashabbuslarda faol ishtirok etishi;
 - Klub faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborotni tarqatishi hamda noto'g'ri ma'lumotlar tarqatilishiga yo'l qo'ymasligi;
 - Klub mulki va resurslaridan oqilona foydalanishi;
 - O'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi;
 - klub manfaatlarini himoya qilishi va uning ijobiy imijini saqlashga hissa qo'shishi shart.
- 4.7. Klub a'zoliqi quyidagi hollarda tugatiladi:
 - A'zoning o'z xohishiga ko'ra;
 - Nizom talablarini buzgan taqdirda;
 - Klub faoliyatida muntazam ishtirok etmaganda;
 - Universitet talabasi maqomi yo'qolganda.
- 4.8. A'zolikni tugatish to'g'risidagi qaror Klub rahbariyati tomonidan qabul qilinadi.

5. Klub faoliyatini boshqarish tartibi

5.1. Klub faoliyatiga umumiy rahbarlik Klub rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

5.2. Klub faoliyatini muvofiqlashtirish hamda metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida Universitet tomonidan mas'ul shaxs biriktiriladi.

5.3. Klub boshqaruvi quyidagi tarkibdan iborat:

- Klub rahbari;
- Rahbar o'rinbosari;
- Yo'nalishlar bo'yicha yetakchilar;
- Universitet tomonidan biriktirilgan mas'ul shaxs.

5.4. Klub rahbari klub faoliyatini umumiy boshqaradi va muvofiqlashtiradi.

5.5. Klub rahbari quyidagi vakolat va majburiyatlarga ega:

– Klub faoliyatini rejalashtiradi, belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qiladi;

– Klub yig‘ilishlarini tashkil etadi, kun tartibini shakllantiradi va ularni olib boradi;

– Klub nomidan chiqish qiladi hamda uning manfaatlarini belgilangan tartibda ifodalaydi;

– Yo‘nalishlar bo‘yicha yetakchilar faoliyatini muvofiqlashtiradi va ular o‘rtasida samarali hamkorlikni ta‘minlaydi;

– Klub faoliyati natijalari yuzasidan belgilangan tartibda hisobot tayyorlaydi va taqdim etadi.

5.6. Rahbar o‘rinbosari klub rahbariga klub faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishda ko‘maklashadi hamda zarur hollarda uning vazifalarini bajaradi.

5.7. Rahbar o‘rinbosari quyidagi vakolat va majburiyatlarga ega:

– Klub rahbari yo‘qligida uning vazifalarini bajaradi hamda klub faoliyatining uzluksizligini ta‘minlaydi;

– Klub ichki tashkiliy ishlarini muvofiqlashtiradi va faoliyat samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi;

– Yig‘ilishlar bayonnomalarini yuritadi hamda ularning belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta‘minlaydi;

– Klubga oid hujjatlar va a‘zolar ro‘yxatini tartibga soladi hamda ularning yuritilishini nazorat qiladi;

– Klub a‘zolari o‘rtasida ichki axborot almashinuvini tashkil etadi va ta‘minlaydi;

– Alohida loyihalar va tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish uchun mas‘ul hisoblanadi.

5.8. Universitet tomonidan biriktirilgan mas‘ul shaxs klub faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda uning samarali tashkil etilishiga ko‘maklashadi.

5.9. Mas‘ul shaxs quyidagi vakolat va majburiyatlarga ega:

– Klub faoliyatini umumiy muvofiqlashtiradi hamda uning belgilangan yo‘nalishlar asosida amalga oshirilishini ta‘minlaydi;

– Klub faoliyatini tashkil etishda tashkiliy va metodik yordam ko‘rsatadi;

– Mazkur Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qiladi;

– Klub va Universitet o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ta‘minlaydi.

5.10. Klub rahbari hamda Universitet tomonidan biriktirilgan mas‘ul shaxs Universitet rektori buyrug‘i asosida tayinlanadi.

5.11. Rahbar o‘rinbosari va yo‘nalishlar bo‘yicha yetakchilar Klub a‘zolari orasidan ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

6. Klub yig‘ilishlarini tashkil etish, o‘tkazish va qarorlar qabul qilish tartibi

6. 1. Klub faoliyatiga oid masalalar umumiy yig‘ilishlar hamda ishchi yig‘ilishlarda ko‘rib chiqiladi.

- 6.2. Umumiy yig'ilishlar zaruratga ko'ra, lekin kamida oyiga bir marta o'tkaziladi.
- 6.3. Yig'ilishlar Klub rahbari tomonidan chaqiriladi va olib boriladi.
- 6.4. Zarur hollarda yig'ilishlar masofaviy (onlayn) shaklda ham o'tkazilishi mumkin.
- 6.5. Yig'ilish kun tartibi oldindan belgilanadi va a'zolarga ma'lum qilinadi.
- 6.6. Yig'ilish qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va ko'pchilik ovoz bilan tasdiqlanadi.
- 6.7. Yig'ilish bayonnomalari yuritiladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

7. Klub faoliyatini tashkil etish tartibi

- 7.1. Klub faoliyati belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda reja asosida tashkil etiladi.
- 7.2. Klub faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida yillik va oylik ish rejalari ishlab chiqiladi hamda tasdiqlanadi.
- 7.3. Klub tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar, loyihalar va dasturlar belgilangan tartibda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.
- 7.4. Klub faoliyati quyidagi asosiy shakllarda amalga oshiriladi:
 - ilmiy seminarlar, treninglar va mahorat darslari;
 - davra suhbatlari, debatlar va intellektual o'yinlar;
 - loyihalar va startup tashabbuslari;
 - konferensiyalar, tanlovlar va boshqa tadbirlar.
- 7.5. Klub faoliyati doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan belgilangan tartibda hisobotlar tayyorlanadi.
- 7.6. Klub faoliyatining samaradorligi bajarilgan ishlar natijalari asosida baholanadi.
- 7.7. Klub faoliyatini tashkil etishda ijro intizomi va belgilangan vazifalarning o'z vaqtida bajarilishi ta'minlanadi.
- 7.8. Klub faoliyati ustidan ichki nazorat Klub rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi.

8. Klub faoliyatini moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash tartibi

- 8.1. Klub faoliyati Universitet tomonidan ko'rsatiladigan tashkiliy, moddiy va boshqa ko'maklar asosida qo'llab-quvvatlanadi.
- 8.2. Klub faoliyatini qo'llab-quvvatlash quyidagi manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin:
 - Universitet tomonidan ajratiladigan mablag'lar va resurslar;
 - homiylik mablag'lari va grantlar;
 - qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.
- 8.3. Klub faoliyati doirasida jalb etilgan mablag'lar va resurslardan belgilangan maqsadlar asosida oqilona va samarali foydalaniladi.
- 8.4. Klub notijorat asosda faoliyat yuritadi hamda daromad olishni asosiy maqsad qilib qo'ymaydi.

8.5. Klub faoliyatini qo'llab-quvvatlash quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- tadbirlar o'tkazish uchun zarur sharoitlar yaratish;
- mutaxassislar va trenerlarni jalb etish;
- metodik va axborot resurslari bilan ta'minlash;
- tashkiliy va texnik yordam ko'rsatish.

8.6. Klub faoliyati bilan bog'liq masalalarda Universitet tomonidan belgilangan tartibda nazorat amalga oshiriladi.

9. Rag'batlantirish va javobgarlik

9.1. Klub faoliyatida faol ishtirok etayotgan a'zolar belgilangan tartibda rag'batlantirilishi mumkin.

9.2. Klub a'zolari quyidagi shakllarda rag'batlantirilishi mumkin:

- faxriy yorliqlar va sertifikatlar bilan taqdirlash;
- tavsiyanomalar berish;
- faol a'zolarini turli tanlovlar va loyihalarda ishtirok etishga tavsiya etish;
- klub doirasida alohida e'tirof etish;
- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa shakllarda rag'batlantirish.

9.3. Rag'batlantirish Klub rahbariyati tomonidan a'zolarining faolligi, tashabbuskorligi va erishgan natijalari asosida amalga oshiriladi.

9.4. Klub a'zolari mazkur Nizom talablariga rioya etmagan taqdirda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

9.5. Klub a'zolariga nisbatan quyidagi choralar qo'llanilishi mumkin:

- ogohlantirish berish;
- vaqtincha faoliyatdan chetlashtirish;
- klub a'zolidan chiqarish.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Mazkur Nizom Termiz iqtisodiyot va servis universiteti rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

10.2. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishi ustidan nazorat belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10.3. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar belgilangan tartibda Termiz iqtisodiyot va servis universiteti rektorining buyrug'i asosida kiritiladi hamda tasdiqlanadi.

10.4. Nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.